

“O‘zbekistonda Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti kunlari”ga start berildi

Bugun, 22 aprel kuni O‘zbekiston Fanlar akademiyasida “O‘zbekistonda Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti kunlari” ochilishiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda FA rahbariyati, Yadro fizikasi instituti yetakchi olimlari, Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti direksiyasi va laboratoriyalarining yetakchi olimlari, Dubna universiteti va Moskva davlat universitetining Dubna filiali rahbariyatidan iborat YaTBI vakillik delegatsiyasi ishtirok etdi.





Mazkur tadbirni o'tkazishdan maqsad Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari hamda Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishdan iborat.

Tadbir doirasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi O'zbekiston Fanlar akademiyasi va YaTBI o'rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bosh shartnoma imzolandi. Unga ko'ra Fanlar akademiyasi institutlarda YaTBI yetakchi olimlarining ishchi tashriflari va ma'ruzalari tashkil etish, YaTBI laboratoriyalari bilan ikki tomonlama ilmiy aloqalarni chuqurlashtirish nazarda tutilgan.

Tadbir dasturidan YaTBI delegatsiyasining Fanlar akademiyasi Prezidiumi hamda O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida uchrashuvlari, shuningdek, FA ilmiy-tadqiqot institutlari, bir guruh delegatsiya a'zolarining Samarqandga tashriflari o'rin olgan.

Shuningdek, O'zbekiston va YaTBI o'rtasidagi hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish uchun YaTBI rahbariyatining O'zbekiston hukumati vakillari bilan uchrashuvi rejalashtirilgan.